

- Uying kuyg'ushtirishda qolning alqan yomonlasi qiyib kelyapti-da, rais aka. Ayniqsa, ko'sak qurti...
- Ha, Shodivoy, bu masala har yili boshimizni qotiradi.
- Agar qushlar bo'lmasa, boshog'rig'ingiz yanayam ko'payardi.
- Bilaman, azamat parrandalarimiz bizga juda katta yordam berishadi.
- He atta-a-ng, yaqin-orada shu ko'makdanam ayrilib qolmasa-da dehqonlar.
- Sabab?
- Sababi shuki, rais aka, qishlog'imizda parrandalar uchun tirikchilik qilish og'irlashib ketyapti. O'zingizdan qolar gap yo'q, qushlar asosan qishloqdagi uvoq-ushoqlar bilan kun ko'rishadi. Orada, bazan ko'ngil ochgani dalalarga chiqishib, yo'l-yo'lakay haligi hasharotlardan ham totib ko'rishadi. Afsuski, keyingi paytlarda ularning ko'pchiligi boshqa qishloqlarga ko'chib ketishdi, o'sha joydagi shirkat xo'jaliklariga yordam berishyapti. Ha, qushlarimiz juda kamayib ketdi!
- Nega kamayarkan?
- Menimcha, bu... baqalarning tobora ko'payib borayotganidan bo'lsa kerak. Baqalar shunday maraz maxluqli, qishloqdagi sarqitlarga qushlarni tengsherik ham qilishmaydi. Qishloqdan ovqatlanishni bilishadi, lekin dalaga chiqib hasharot ovlashganini hali hech kim ko'rmagan.
- Tekinxo'rlar! Ularning tuxumini quritish kerak!
- To'g'ri gapirasiz, rais aka. Men o'sha muttahamlarning tuxumi qaerdaligini yaxshi bilaman. Mahalladagi eski hovuz baqalar inkubatoriyasiga aylanib qolgan.
- Buni yaxshi aytding, Shodivoy. Bir hashar qilamizu, ertagayoq o'sha hovuzni ko'mib tashlaymiz.
...Ezmalanma-ezmalanma oxiri niyatiga yetgan Shodivoy, ketib borayotgan raisning ortidan mug'ambirona boqib, mamnun kayfiyatda tomoq qirib qo'ydi. Uning hovlisi biqnidagi o'sha eski hovuz yakkasinch uyining orqa poydevorini judayam zaxlatib yuborgandi.

1978